

GRAFIKA SAN'ATI VA UNING BUGUNGI TASVIRIY SAN'ATDAGI DOLZARBLIGI

To'xtaqulov Dilbek Murodjon o'g'li

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va
dizayn instituti "Miniatyura va kitob grafikasi" kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada grafika san'ati va uning bugungi tasviriy san'atdagi dolzarbligi, zamonaviy tasviriy san'atdagi grafika an'ana va yangilikni o'zida mujassam etgan noyob hodisa ekanligi, uning ko'p qirraliligi, moslashuvchanligi va jamiyatning dolzarb muammolariga javob berishi to'g'risida to'liq bayon etilgan.

Kalit so'zlar: grafika san'ati, tasviriy san'at, xattotlik san'ati, poligrafiya sanoati, fotomexanika, dastgoh grafikasi.

Annotation: This article discusses graphic art and its relevance in today's visual arts, the fact that graphics in modern visual art is a unique phenomenon that combines tradition and innovation, its versatility, adaptability and response to the current problems of society.

Key words: graphic arts, visual arts, calligraphy, printing industry, photomechanics, machine graphics.

Kirish:

Ma'lumki, grafika - yunoncha so'z bo'lib o'zbek tilida yozaman, chizaman degan ma'nolarni anglatadi. Grafika rasm va rasm san'atiga asoslangan biroq o'z tasvir va ifoda vositalariga ega bo'lgan bosma badiiy asar sanaladi. Grafika termini ilk marta xat va xattotlik san'ati ma'nosida qo'llanilgan. XIX asr oxiri - XX asr boshlaridan yangi ma'no kasb etdi, poligrafiya sanoatining takomillashuvi, fotomexanikaning vujudga kelishi bilan grafika tasviriy san'at turiga aylanadi. Grafika san'ati - tasviriy san'atning eng keng tarqalgan hozirjavob va jangovar turi hisoblanadi.

Grafika san'atida voqelik asosan chiziqlar, shakllar va oq-qora ranglar asosida tasvirlanadi. Bu san'at turida har doim ham turli ranglar foydalanavermaydi, foydalanilganda ham asar mazmunini ochib berishda asosiy vazifani olmaydi. Grafika asarlari o'zining bajaradigan funksiyasi va mazmuniga ko'ra, dastgoh grafikasi, kitob va gazeta-jurnal grafikasi, plakat, shuningdek amaliy grafika san'atiga bo'linadi. Dastgoh grafika san'atiga mustaqil xarakterga ega bo'lgan, o'zida tugal fikrni bildiradigan, yangi fikrlarni dastlabki suradigan grafika asarlariga aytiladi. Dastgoh grafika san'ati asarlarining ko'rinishlaridan biri estampdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Grafika san'atining yana bir turi plakatlar chizish hisoblanadi. Siyosiy plakatlar, reklama afishalar, satira va yumoristik asarlar shular jumlasidandir. Sanoat grafikasiga esa yorliq, ramz va boshqalar kiradi. Arxeografiyada loyiha, reja, uy sxemasi, manzil bo'yicha yo'nalish kabilar tasvirlanadi. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mavzuli kompozitsiyalar, kitobning ichki va tashqi tarafga ishlangan turli rasmlar,

illyustratsiya, plakat, karikatura, sharj, etiketka, marka, ekslibris va boshqalar kiradi. Grafika san'ati asarlari hajm tomondan ancha katta bo'lmay, asosan qog'ozga ishlanadi. Grafikaning xarakterli tomonlaridan biri, uning seriyali qilib ishlanishi, ya'ni voqeani bir necha qog'ozda tasvirlanishidir. Bunday seriyali rasmlar o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ma'lum bir mazmunni ochib beradi.

Grafika bizning zamonamizning masalalariga, shuningdek ekologiya, texnologiya va ijtimoiy tenglik masalalariga faol javob beradi. Ko'pgina zamonaviy rassomlar iqlim o'zgarishi, migratsiya yoki raqamli madaniyat kabi global masalalarni hal etuvchi asarlar yaratish uchun grafik vositalardan foydalanadilar. Grafika o'zining metaforik va ramziy ifodalash qobiliyatiga ega bo'lib, mualliflarga voqelikni tanqidiy mulohaza yuritish, uning muhim jihatlariga e'tibor qaratish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, materiallar va texnologiyalarning nisbiy mavjudligi sababli grafika demokratik san'at turi bo'lib qolmoqda, bu boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish cheklangan vaqtlarda ayniqsa asosiy hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib grafika san'at yo'nalishida contemporaratmry drawing, giperrealistik grafika, surrealistik va modernistik grafika ulsublarida ishlanayodgan yangicha yo'nalishlar paydo bo'la boshladi va bu o'z o'rnida grafika san'atining keyingi bosqichlariga albatta o'z tasiri o'tkazmasdan qolmaydi. Nima bo'lganda ham grafika yo'nalishi boshqa san'at yo'nalishlari uchun fundamental san'at yo'nalishi sifatida qolaveradi. Tasavvur tasurotga, tasurot tasvirga, tasvir esa shakl va qoralama shaklda qog'ozga ko'chadi. Bu esa grafika yo'nalishining dastlabki ko'rinishi hisobladi.

Natijalar:

Zamonaviy tasviriy san'atdagi grafika an'ana va yangilikni o'zida mujassam etgan noyob hodisa sanaladi. Uning ko'p qirraliligi, moslashuvchanligi va jamiyatning dolzarb masalalariga javob berish qobiliyati mazkur san'at turini elita badiiy muhitda ham, ommaviy madaniyatda ham asosiy va talabga ega qiladi. Vizual landshaftdagi doimiy o'zgarishlar bilan grafika inson tajribasini o'rganish va ifodalash uchun asosiy vosita bo'lib qolmoqda.

Grafika san'ati eng demokratik san'at hisoblanadi. U goh plakat tarzida, goh gugurt qutichasining yuzasiga ishlangan tasvir tariqasida, goh gazeta sahifalaridagi surat tarzida o'lkaning uzoq chekkalariga kirib boradi, o'sha yerlarda ma'rifat tarqatadi, insonlarni bo'layotgan yangiliklar bilan tanishtiradi. Shuning uchun ham grafika san'ati yuqori g'oyaviy-siyosiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Grafika hayot hodisalarini tezroq aks ettirishi bilan ommaviylik xususiyatiga ega. Uni ko'rgazmalarda namoyish etish bilan birga ko'p narsalarda ko'paytirib tarqatish mumkin. Grafika o'z mohiyati va maqsadiga muvofiq dastgohli va amaliy ko'rinishlarga ega.

Muhokama:

Grafika san'atining dastgohli ko'rinishi nisbiy mustaqil bo'lib unda suv bo'yoqli, yumshoq rangli qalam, musavvir yaratgan bosma shakldan nusxa ko'chirish, o'yib solingan, maxsus taxtachaga o'yib tushirilgan ko'rinishlarida yog'och, metall, ko'mir, karton va boshqa ashyolarda ifodalanadi. Amaliy grafika badiiy ijod turlari bilan uzviy tarzda sanoat grafikasi kitoblarga tushirilgan rasmlar ko'rinishida ham amal qiladi. Kitob grafikasi bezakli

bo‘lishi bilan birga asar mazmunining adabiy qiyofalar teranligini ochib berishga ham xizmat qiladi. Muallif badiiy rejasi va uslubiga mos bo‘ladigan mahorat bilan ishlangan kitob bezaklari badiiy asar mohiyatini tushunish va uni chuqur his-tuyg‘u bilan idrok etishga yordam beradi.

Grafika san‘ati hozirgi tasviriy san‘atning eng dinamik va innovatsion sohalaridan biri hisoblanib, uning dolzarbligi texnologik yutuqlar, ijtimoiy ehtiyojlar va ilmiy innovatsiyalar bilan bevosita bog‘liq. Mazkur san‘at nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki ilmiy va ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirishda ham asosiy o‘rin tutadi. Zamonaviy grafika san‘ati texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan ravishda, insoniyatning estetik va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, grafika san‘ati asosan chiziq, shakl va oq qora ranglar yordamida tasvirlanadi. San‘atning ayrim turlarida bo‘yoqlardan ham foydalaniladi, biroq asar mazmunini ochib berishda muhim vazifani amalga oshirmaydi, faqat insonlarni jalb qilish vazifasini bajarishi mumkin. Shuning uchun ham bu sohada ikki uch xildan ortiq bo‘yoq deyarli foydalanilmaydi. Grafika san‘ati asarlari hajm jihatdan uncha katta bo‘lmay, ko‘p hollarda qog‘ozga ishlanadi. Grafikaning xarakterli tomonlaridan biri, uning seriyali qilib ishlanishi, ya’ni voqeani bir necha qog‘ozda tasvirlanishidir. Bunday seriyali rasmlar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ma’lum bir mohiyatini ochib beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodirxo‘jayev P. T. “Badiiy bezak san‘ati”. -T: “Iqtisod moliya” 2007.
2. Sultonov, X. E., Ankaboev, R. T., Xasanova, N. S., & Chorlieva, Tasviriy san‘at darslarida innovatsion o‘qitish usullari. 2017.
3. Oripov B. Tasviriy san‘at va uni o‘qitish metodikasi.-T.: "Ilm- Ziyo", 2006.
4. Qodirxo‘jaev P. T. Maktabda badiiy bezak ishlari. -T: O‘qituvchi 2001.
5. Tursunmurotovich, S. S. Kitob mazmunini idrok etishda illyustratsiyalarning ahamiyati. Ta’lim fanlari bo'yicha Yevropa tadqiqot va mulohaza jurnali, 2020.